


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ
IJTIMOIY
FANLAR
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК

ORIENTAL
JOURNAL
OF SOCIAL
SCIENCES



ISSN 2181-2829

2025





DEVELOPING THE TRADITIONS OF BAKHSHI MUSIC OF BOYSUN IN THE FIELD OF ETHNOTOURISM

Valisher Abirov

PhD, Tashkent State Institute of Oriental Studies

Tashken, Uzbekistan

E-mail manzili: abirovvalisher@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Boysun, baxshichilik, ethnotourism, intangible cultural heritage, oral folklore, folklore, tourism, Boysun Bahori, epic art, baxshi, cultural heritage, national culture, international festival, tourist program.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: This article examines the development of Boysun's baxshichilik (epic storytelling) traditions within the framework of ethnotourism. Recognized as an element of Uzbekistan's intangible cultural heritage, baxshichilik is a unique example of oral folklore. The study highlights the ethnotouristic significance of "bakhshichilik", the cultural and historical heritage of Boysun's baxshi performers, and the potential for creating tourism programs based on this art form. Additionally, practical proposals are presented for organizing live folklore performances with baxshi artists, further developing the "Boysun Bahori" international festival, establishing "bakhshichilik" schools, and producing souvenirs as tourism products. The article explores strategies to expand tourism opportunities in Boysun and promote national culture on the international stage.

BOYSUN BAXSHICHILIK AN'ANALARINI ETNOTURIZM YO'NALISHIDA RIVOJLANTIRISH

Valisher Abirov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti PhD

Toshkent, O'zbekiston

E-mail manzili: abirovvalisher@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Boysun, baxshichilik, etnoturizm, nomoddiy madaniy meros, xalq og'zaki ijodi, folklor, turizm, Boysun bahori, doston, epik san'at, baxshi, madaniy meros, milliy

Annotatsiya: Mazkur maqolada Boysun baxshichilik an'alarini etnoturizm yo'nalishida rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Baxshichilik san'ati O'zbekistonning nomoddiy

madaniyat, xalqaro festival, sayyohlik dasturi.

madaniy merosi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, xalq og'zaki ijodining nodir namunasidir. Baxshichilikning etnoturistik ahamiyati, Boysun baxshilarining madaniy va tarixiy merosi hamda ushbu san'at turi asosida sayyohlik dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, baxshilar ishtirokida jonli folklor dasturlarini tashkil etish, "Boysun bahori" xalqaro festivalini yanada rivojlantirish, baxshichilik maktablarini tashkil etish va turistik mahsulot sifatida suvenirlar yaratish bo'yicha amaliy takliflar berilgan. Boysunning turizm sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish va milliy madaniyatni xalqaro maydonda targ'ib qilishga qaratilgan yondashuvlar ilgari suriladi.

РАЗВИТИЕ ТРАДИЦИЙ БАЙСУНСКОГО БАХШИЧИЛИКА В НАПРАВЛЕНИИ ЭТНОТУРИЗМА

Валишер Абиров

Ташкентский государственный университет востоковедения, PhD

Ташкент, Узбекистан

E-mail manzili: abirovvalisher@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бойсун, бахшичилик, этнотуризм, нематериальное культурное наследие, устный фольклор, фольклор, туризм, Байсун Бахори, эпическое искусство, бахши, культурное наследие, национальная культура, международный фестиваль, туристическая программа.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития традиций байсунского бахшичилик (искусства сказителей) в направлении этнотуризма. Искусство бахши признано нематериальным культурным наследием Узбекистана и является уникальным образцом народного устного творчества. Раскрывается этнотуристическая значимость бахшичилик, культурное и историческое наследие байсунских бахши, а также возможности разработки туристических программ на основе этого вида искусства.

Кроме того, представлены практические предложения по организации живых фольклорных программ с участием бахши, дальнейшему развитию международного фестиваля «Весна в Байсуне», созданию школ «бахшичилик» и производству сувенирной продукции как туристического продукта. В статье выдвигаются подходы, направленные на расширение туристического потенциала Байсуна и продвижение национальной культуры на международной арене.

Boysun baxshichilik an'analari O'zbekistonning noyob madaniy meroslaridan biri bo'lib, asrlar davomida xalq og'zaki ijodining eng yorqin namunalari sifatida e'tirof etib kelinadi. Baxshilar tomonidan ijro etiladigan epik dostonlar va xalq qo'shiqlari O'zbekistonning janubiy qismidagi Boysun mintaqasining boy tarixiy va madaniy merosini aks ettiradi. Ushbu an'analarning etnoturizm yo'nalishida rivojlantirilishi Boysunni xalqaro turizm xaritasida yanada yuqori pog'onaga olib chiqishi mumkin.

Baxshichilik – ikki buyuk daryo, Jayxun va Sayxun oralig'idagi sivilizatsiyalarni yaratish qudratiga ega bo'lgan ulug' ajdodlarimizdan meros. Sobiq sho'rolar davri mafkurasi xuddi Navro'z, muqaddas dinimizga bo'lganidek, baxshichilik san'atida ham ko'p tazyiqlarni boshidan kechirdi. Turli katta-kichik yig'ilishlarida «baxshi – eto baqiroq chol» degan tamg'alar yopishtirildi .

Boysun mintaqasi qadimiy tarixiy voqealar va madaniy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda yashagan ajdodlarimiz xalq og'zaki ijodini avlodlardan avlodga yetkazgan. Baxshichilik esa xalqimizning tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ushbu bebaho merosni asrab-avaylash va etnoturizm sohasida rivojlantirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki milliy madaniyatimizni xalqaro miqyosda tanitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Boysun tumanining "Kofrun" dostonchilik maktabi aynan shunday an'analarni davom ettirmoqda . Boysun tumanining Kofrun qishlog'ida yashab ijod qilgan bir qator taniqli baxshilar tomonidan asos solingan ushbu dostonchilik maktabining ilk asoschisi Adurasul yuzboshi (1827-1902) bo'lib bir qator baxshilarga ustozlik qilgan. Ulardan Abdurasul yuzboshi, Sherdanaqul Mardonaqul o'g'li, Mirza Xo'jamurod o'g'li (1875-1913), Ismoil To'ra o'g'li (1878-1969), Norboy yuzboshi, Xasan Qora o'g'li (1886-1946), Ochildi shoir, Toshmurod To'ra o'g'li singari bir qator taniqli baxshilar ushbu dostonchilik maktabining vakillaridan hisoblanadi. Sho'rolar tomonidan olib borilgan siyosatning qurboni bo'lgan "Beshqo'ton" dostonchilik maktabi vakillari Holyor baxshi Abdukarim va boshqa baxshilarning boshiga tushgan ayanchli fojiiyalar Kofrun dostonchilik maktabi vakillaridan Elmurod baxshi va Toshmurod baxshilarning ham xayotini o'zgartirib yubordi. Ular o'z jonlarini saqlash uchun Denov tumaniga ko'chib ketishga majbur bo'ldilar. Shuningdek ushbu dostonchilik maktabining yana bir vakili Ismoil baxshi To'ra o'g'lining Qashqadaryo tomonlarga ketishiga sabab bo'ldi .

Kofrun dostonchilik maktabining vakillaridan Ismoil baxshi To'ra o'g'li (1969) va Ulash baxshi G'oziyevlarning (1966) vafot etishi bilan ushbu dostonchilik maktabi faoliyati tomom bo'lgan. Kofrunlik baxshilar ijrosidagi rivoyatlar, ayrim termalar, dostonlardan parchalargina yozib olinishiga muvofiq bo'lingan.

Boysunlik Ermamat baxshi ijodi ham xalq orasida asrlar davomida mashhur bo'lib kelgan. Yigirmadan ortiq xalq dostonlari, jumladan "Alpomish", "Avazxon", "Dallijon", "Quntug'mish", «Misqol pari», "Bologardon", "Bazurg'on", «Kunduz va Yulduz» kabi dostonlarni o'ziga xos uslubda maxorat bilan kuylagan. Mullo Ermamat baxshi Boysun rayonidagi Yomchi, Pitov, Kofrun, Bandixon, To'da, Gaza, Toba qishloqlarida o'z san'atini namoyish etgan.

Boysun mintaqasidagi mavrigi, qarsak, baytlar va aytishuvlar (ishqiy-lirik va hajviy mavjuda keng tarqalgan). Qishloqlarda ommabop bo'lib ketgan doston termalari va baxshi termalari ham ushbu guruhga kiradi. Yagona janr turlari ijrochilik uslublari va ifodaviy vositalari bilan mahalliy an'analarga tayangan – sadr, jaxr, alas, qo'shnos, go'yanda, tuya qadam kabi aytim-qo'shiqlardan tashkil topgan.

Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o'zi yashab turgan yurt tarixini va biror cholg'u chalishni bilishi, xonandalik san'atini puxta egallagan bo'lishi kerak. Tinglovchilarni rom etuvchi ohang topa bilish, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytish doston aytishning asosiy talablaridandir.

Boysun baxshichiligi xalq og'zaki ijodining noyob shakli bo'lib, u o'ziga xos epik dostonlar, qo'shiqlar va musiqiy ijrolarni o'z ichiga oladi. UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgan ushbu san'at turi Boysunning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Baxshichilik san'ati quyidagi jihatlari bilan etnoturizm uchun muhim ahamiyat kasb etadi:

Tarixiy va madaniy merosni targ'ib qilish – Baxshilar tomonidan ijro etiladigan "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlar mintaqaning tarixini ochib beradi.

Sayyohlik mahsuloti sifatida – Baxshilar ishtirokida jonli ijro dasturlarini tashkil etish sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.

Mahalliy madaniyat va an'analarga qiziqish uyg'otish – Baxshichilik sayyohlarga Boysunning boy madaniyati bilan tanishish imkonini beradi.

Ekoturizm bilan integratsiya qilish – Baxshichilik san'atini Boysunning tabiiy go'zalliklari bilan uyg'unlashtirib, ekoturistik sayohatlar tashkil etish mumkin.

Boysun baxshichiligini etnoturizmga integratsiya qilish yo'llari.

1. Baxshilar ishtirokida jonli folklor dasturlarini tashkil etish. Boysunning diqqatga sazovor joylarida yoki maxsus etnoturistik markazlarda baxshilar ishtirokida dostonlar va xalq qo'shiqlari ijro etiladigan kechalar uyushtirish mumkin. Ushbu dasturlar mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, xorijiy sayyohlar uchun tarjimon xizmatlarini

taqdim etish va audiogid tizimini joriy etish orqali baxshichilik san'atining tushunarli bo'lishiga erishish mumkin.

2. "Boysun bahori" xalqaro festivalining turistik salohiyatini oshirish. Har yili o'tkaziladigan "Boysun bahori" festivali doirasida baxshilar ishtirokida maxsus dasturlar tashkil etish va festivalni xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish lozim. Shuningdek, festival doirasida xalqaro mehmonlar uchun seminar va ustaxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turizm kompaniyalari bilan hamkorlikda festivalga maxsus sayyohlik paketlari ishlab chiqish, xorijiy mehmonlar uchun festival doirasida turli folklor mahorat darslari o'tkazish ham festivalning ommabopligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Baxshichilik an'analari bilan bog'liq turistik yo'nalishlar yaratish. Boysun mintaqasida baxshichilik bilan bog'liq tarixiy va madaniy joylarni o'z ichiga olgan sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish mumkin. Bunday yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Baxshilar yetishib chiqqan qishloqlar va ularning hayoti bilan bog'liq joylar.
- Baxshilar tomonidan dostonlar ijro etilgan tarixiy maskanlar.
- Mahalliy hunarmandchilik markazlari, kulolchilik va gilamdo'zlik ustaxonalari.
- Baxshichilik san'ati namoyish etiladigan turistik shoular.

4. Baxshilar maktabini tashkil etish. Boysun baxshichilik an'alarini asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish maqsadida baxshilar maktabini tashkil etish lozim. Bu nafaqat an'analarni davom ettirishga, balki sayyohlarni jalb qilishga ham xizmat qiladi. Sayyohlar uchun baxshichilik san'ati bo'yicha mahorat darslari tashkil etish mumkin. Maktab tarkibida xorijiy mehmonlar uchun qisqa muddatli kurslar joriy qilish va bu orqali turistlarga xalq og'zaki ijodini o'rganish imkoniyatini taqdim etish mumkin.

5. Baxshichilik san'ati bilan bog'liq suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish. Baxshichilik madaniyatini turistlarga yanada yaqinroq qilish uchun dostonlarning yozma va audio shakllarini suvenir sifatida taklif qilish mumkin. Shuningdek, baxshilar an'analari aks ettirilgan suvenirlar, milliy liboslar va dekorativ buyumlar ham turistlar orasida katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Baxshilar portretlari tushirilgan miniatyuralar, milliy cholg'u asboblari hamda baxshichilikka oid kitoblar ham turistik mahsulot sifatida ishlab chiqarilishi mumkin.

Xulosa. Boysun baxshichilik an'alarini etnoturizm yo'nalishida rivojlantirish Boysunning madaniy merosini saqlash bilan birga, mintaqaning turistik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Baxshilar ishtirokida jonli ijro dasturlarini tashkil etish, xalqaro festival va madaniy tadbirlarni kengaytirish, baxshichilikka asoslangan sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish va suvenir mahsulotlarini yaratish orqali Boysunni xalqaro etnoturizm markaziga aylantirish mumkin. Bunday tashabbuslar nafaqat sayyohlikni rivojlantirishga, balki madaniy

merosning barqaror saqlanishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, baxshichilik san'atini turistik mahsulotga aylantirish orqali Boysunning xalqaro e'tirofga sazovor bo'lishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent., 2017.
2. Mahmudov Mirsaid Mavlon o'g'li. Surxon baxshichilik maktabi. Academic research in modern science, 2(14). – 2023. – B. 32–34.
3. Rashidov Q. Surxondaryo viloyati Boysun hududidagi “Kofirun” doston ijrochilik maktabi baxshilari ijodi // Oriental Art and Culture .Vol. 5 No. 6 2024. – B. 425–429.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijod. – Toshkent., “Musiqqa” nashriyoti. 2010.
5. Tarixni dostonlarida yetkazayotgan baxshilar (https://uza.uz/oz/posts/tarixni-dostonlarida-yetkazayotgan-baxshilar_696906. Berilgan vaqti: 12.03.2025)
6. Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: “Akademnashr”, 2011.
7. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.
8. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). Science and innovation, 3(Special Issue 46), 507-510.